

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI BANKINGNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Xikmetov Nodirbek Ikromovich

Annotatsiya: Shubhasiz, raqamli iqtisodiyotning samaradorligiga nafaqat axborot texnologiyalarining qamrovi va infratuzilmaning mavjudligi, balki ishbilarmonlik muhiti, inson kapitali va muvaffaqiyatli boshqaruv instrumentlari kabi standart iqtisodiy mezonlar ham ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot aynan ularga tayanadi, bu esa ushbu mezonlarning raqamli iqtisodiyot rivojlanishida avvalgiday muhim o'rin tutishini bildiradi.

Raqamli bank - an'anaviy bank xizmatlarini avtomatlashtirishdir. Bu - mijozlarni jalb qilish, rentabellikni oshirish va nazorat qilishning kalitidir. Banklardagi xizmat ko'rsatish mavjudligini Internet mavjudligi bilan almashtirish va mijozning filialga tashrif buyurish ehtiyojini yo'q qilish orqali bank faoliyatini yanada takomillashtiradi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli bank, raqamli segment, tijorat banklari, mobil ilovalar, dasturlar.

Аннотация: очевидно, что на эффективность цифровой экономики влияют не только масштабы информационных технологий и доступность инфраструктуры, но и стандартные экономические критерии, такие как деловая среда, человеческий капитал и инструменты успешного управления. Следовательно, именно на них опирается экономический прогресс, а значит, эти критерии играют столь же важную роль в развитии цифровой экономики, как и прежде.

Цифровой банкинг - это автоматизация традиционных банковских услуг. Это-ключ к привлечению клиентов, повышению прибыльности и контролю. Он еще больше улучшает банковское обслуживание, заменяя доступность услуг в банках доступностью интернета и устраняя необходимость клиента посещать филиал.

Ключевые слова: Цифровая экономика, цифровой банкинг, цифровой сегмент, коммерческие банки, мобильные приложения, приложения.

Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga

qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi.

«Raqamlashtirish» so'zi aslida yangi atama bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o'laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutadi.

Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba – tranzaksion sektorning o'sishidir. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko'rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini (kommunal, shaxsiy va ijtimoiy) birlashtiradi.

Albatta, bugungi kunda axborot tizimining sezilarli darajada o'zgarishi asosida jamiyat, hukumat, iqtisodiyot, biznes, savdo va bank sohasidagi tub o'zgarishlarni ham kuzatishimiz mumkin.

Insoniyat har kuni ko'plab axborotlarni qabul qiladi. Bunga mobil telefon, internet, smartfonlarning doimiy ravishda o'sib borayotgan texnik imkoniyatlari, insonlarning ijtimoiy tarmoqlarga jalb qilinishi va internet tezligining o'sishi katta yordam beradi.

O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi PF-5296-sonli "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni imzolangach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatilgan.

Shunga ko'ra, O'zbekistonda 2020-yilda "Anorbank" va "TBC bank"lar raqamli bank sifatida ro'yxatga olindi.

Darhaqiqat, "raqamli bank" tushunchasi 2015-2020 yillar davomida Yevropa davlatlarida jadallik bilan rivojlangan. Raqamli banklar o'z mijozlariga yanada qulaylik va foydali xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanadi.

Bugungi kunda raqamli bank sanalmish "Anorbank" va "TBC bank"lar ham o'z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to'liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda. Bu shuni anglatadiki, raqamli bank mijozlari 24/7 tizimida bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ya'ni, raqamli bank tizimida mijozga mobil dasturi, mobil dasturga asosan esa yuqori texnologiyali IT-infratuzilma bilan ta'mirlangan bank operatsiyalarining yuqori moslashuvchanligi taqdim etiladi.

Albatta savol tug'iladi, bugungi kunda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari bilan yangi tashkil etilgan raqamli banklar o'rtasida qanday farq mavjud?

Raqamli banklar:

- bank filiallari tarmog‘ining kengaytirilmasligi;
- bank-mijoz o‘rtasida onlayn aloqa tizimining 100 foiz o‘rnatilganligi;
- sifatli va foydalanuvchilar uchun qulay bo‘lgan mobil ilova;
- bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar uchun eng qulay sharoitlar (ya’ni, mijoz talabidan kelib chiquvchi);
- tezkor, sifatli, qulay va 24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlarining mavjudligi;

Xususiy yoki davlat banklari:

- Bank filiallar tarmoqlarining har bir tuman, shahar va viloyat kesimida faoliyat yuritishi, sifat darajasiga e’tiborning sustligi;
- Bank-mijoz o‘rtasida onlayn aloqa o‘rnatish holatining pastligi;
- Mobil ilovalari nomiga chiqarilib, foydalanuvchi bir marotaba kiradi va qayta kirmaslikka ahd qiladi (mobil ilovalarda oddiy kartadan-kartaga pul o‘tkazish yoki kommunal to‘lovlar to‘lash jarayonlarida doimiy muammolar mavjud bo‘lim, ko‘p holatlarda tizimda uzilishlar kuzatiladi);
- bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar chiqariladi, ammo ko‘p holatlarda faqat tanish-bilishchilik katta rol o‘ynaydi (agar tanish bo‘lmasa, o‘sha mijoz 3 oy va undan ko‘p muddatga sarson-sargardonlikda yuradi).
- tezkor, sifatli, qulay va 24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlari nomigagina faoliyat yuritadi, mijoz bir savoliga javob olish uchun bankning barcha bo‘limlari mutaxassislari bilan so‘zlashishiga to‘g‘ri keladi. Mijoz vaqti, telefon aloqa xizmati uchun mijoz tomonidan to‘lanadigan summa hisobga olinmaydi.

Demak, moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi bank mijozlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, moliyaviy faollikni oshirish uchun muhim bosqich sanalish bilan birga, mijozlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Ya’ni, raqamli banklarning istiqbollariidan biri, bu moliyaviy tarmoqlarni raqamlashtirish evaziga xizmatlar tannarxi 40-60 foizgacha pasaytirilishiga erishiladi. Mijozlar bankka tashrifi, hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt hamda mablag‘larini tejashiga imkon yaratadi.

Bir so‘z bilan aytganda, tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida ishlashga o‘zgarishi bu – yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi va butun dunyo bo‘ylab faol tarqalishiga javob hisoblanadi hamda raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon banki guruhi va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik dasturlari doirasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va axborot texnologiyalari sohasida ish o‘rinlarini yaratishda yordam masalalarida kelishuvga erishildi. Jahon banki Ijrochi direktorlari kengashi “O‘zbekistonda raqamli inklyuzivlik” loyihasini amalga oshirish uchun 50

million dollar miqdorida imtiyozli kredit ajratishni ma'lum qildi. Loyiha hukumatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda qishloq va chekka hududlardagi minglab yoshlarning raqamli ko'nikmalarga o'qitish va axborot texnologiyalariga asoslangan xizmatlar (ITES) sohasida ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekistonda ITES xizmatlari eksporti 2017-yildagi 600 ming dollardan 2022-yilga kelib 140 million dollargacha sezilarli darajada oshdi, bu bilan bir vaqtda axborot texnologiyalari (IT) sohasida kompaniyalar soni va yuqori maoshli ish o'rinlarining oshishi kuzatildi. Ushbu ijobiy o'sishga qaramay, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) savdosi sektorining mamlakat yalpi ichki mahsulotiga qo'shgan hissasi 2022-yilda 1,9 foizni tashkil etdi. Mamlakatni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasida ("O'zbekiston – 2030" strategiyasi) ushbu o'n yillik yakuniga qadar O'zbekiston Markaziy Osiyo axborot texnologiyalari markaziga ("IT-HUB") aylanishi, IT-xizmatlarining yillik eksporti hajmini 5 milliard dollarga yetkazishi, IT-kompaniyalarning mamlakatdagi vakolatxonalari sonini 1000 tagacha oshirishi va 300 ming nafar yoshlarni IT sohasida ish bilan ta'minlashi kerakligi aytiladi. Ushbu ulkan maqsadlarga erishish uchun O'zbekiston raqamli texnologiyalar sohasidagi zarur ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash, kerakli IT va ofis infratuzilmasini rivojlantirish, IT sohasini rivojlantirish uchun qonunchilik normalarini va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, xorijiy va mahalliy investorlarni ushbu sohaga jalb qilish uchun rag'batlar yaratishga e'tibor qaratishi kerak bo'ladi. O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotiga kiritilayotgan sarmoyalar ayni paytda ta'lim olmayotgan, professional tayyorgarlikdan o'tmagan va mehnat faoliyatida bo'lmagan yoshlar, jumladan, ayollar sonini qisqartirishga ham yordam berishi mumkin. "Jahon banki tomonidan qo'llab-quvvatlanoyatgan yangi loyiha O'zbekistonga ITES xizmatlari sohasidan iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadlarida foydalanishga yordam beradi. Mamlakatning qishloq va chekka hududlarida istiqomat qiluvchi 30 yoshgacha bo'lgan minglab yoshlarni o'qitish maqsadini ko'zlagan ushbu loyiha Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi IT-Park tomonidan amalga oshiriladi. Loyiha doirasida ushbu tayyorlov kurslaridan o'tgan shaxslarni ishga oladigan ITES kompaniyalari uchun turli xil rag'batlar taqdim etiladi", - deya ta'kidlaydi Jahon bankining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Marko Mantovanelli.

TBC Bank — O'zbekistondagi aksiyadorlik tijorat banki. Gruziyaning TBC Bank Group PLC kompaniyasi sho'ba bankidir hamda O'zbekistondagi birinchi raqamli bank hisoblanadi.

Bank 2020-yil aprel oyida Markaziy bank litsenziyasini oldi va 2020-yil oktyabr oyida TBC Groupga tegishli bo'lgan va mobil ilova orqali chakana bank xizmatlarini taklif qiluvchi Space innovatsion fintech platformasi asosida tijorat faoliyatini boshladi. 2022-yilning iyul oyigacha bankning TBC UZ ilovasini 2,4 milliondan ortiq

kishi yuklab olgan. Ayni paytda bank O‘zbekistonning to‘qqiz shahridagi o‘nta yangi avlod shou-ruumlari va respublika bo‘ylab 33 ta „mijozlarni faollashtirish punktlari“ orqali o‘z faoliyatini olib bormoqda.

Hozirda TBC bank tomonidan TBC UZ ilovasi orqali quyidagi asosiy raqamli xizmatlar ko‘rsatib kelinmoqda.

- [TBC Kredit](#);
- [TBC Omonat](#);
- [TBC Stars](#);
- [TBC Muddatli to'lov](#);
- [TBC Do'stlar](#);
- [Pul o'tkazmalari](#);
- [Xalqaro o'tkazmalar](#);
- [TBC Virtual kartasi](#);
- [TBC kartasi](#);
- [TBC Visa Virtual kartasi](#);
- [Yuridik shaxslar uchun depozit](#).

O‘zbeistonda bugungi kundagi raqamli bank xizmatlari ko‘rsatish borasida TBC Group Uzbekistan bosh direktori Nika Kurdiani quyidagicha fikrlarni bildirib o‘tdi. “Bugungi kunda respublikada iste‘mol krediti bozori faol o‘sib, rivojlanib, turli xizmatlarni taklif qilmoqda. Har qanday jadal rivojlanayotgan davlat uchun moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish muhim mavzulardan biridir. Mavzudagi eng muhim narsa — mijozlarning ehtiyojlarini tushunish va kerakli xizmatlarni o‘z vaqtida taqdim etish hamda Fintex, riteyl va an‘anaviy banking o‘rtasidagi chegaralarni xiralashtirishga urg‘u bermagan holda mijozlar yo‘lini tushunish mahoratiga e‘tibor qaratishini va “mijoz yo‘li xaritasi” deb ataluvchi to‘g‘ri mijozlar tajribasini yaratishga—“customer journey”ligi unda mijoz kerakli vaqtda ishonchli moliyaviy xizmatlarni tez va uzilishsiz olishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Raqamli bank – innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassada xizmat ko‘rsatmay) masofadan turib bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo‘linmasi hisoblanar ekan, bu borada eng avvalo jismoniy va yuridik shaxslar uchun qulay, tezkor va ishonchli bank mahsulotlari hamda xizmatlarini yaratish talab etiladi.

Bu bir tarafdin banklar uchun bankdan tashqari pul mablag‘lari harakatini kamaytirish, yangi bank mahsulotlarini yaratish orqali ko‘proq mijozlarni jalb qilish, bank daromadini shunga mos ravishda oshirish, shuningdek, operatsion xarajatlarni kamaytirish hisobiga banklar umumiy moliyaviy imkoniyatlari, sof foydasi oshishida katta rol o‘ynaydi.

Ikkinchi tarafdin, mijozlar uchun moliyaviy faollikni oshirish, mijozlar iqtisodiy imkoniyatini kengaytirish hamda moliyaviy tarmoqlarni raqamlashtirish evaziga

xizmatlar tannarxini 40-60 foizgacha pasaytirish, mijozlarning bankka tashrifi, hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt hamda mablag'lari sarfini tejalishiga olib keladi

Adabiyotlar:

1. „TBC Bank aksiyadorlik tijorat banki “ (2022-yil 23-iyul). Qaraldi: 2022-yil 30-avgust.
2. „"TBC Bank" aksiyadorlik tijorat banki“ (2022-yil 2-sentyabr). Qaraldi: 2022-yil 3-sentyabr.
3. „TBC Bank стал партнером TAF!21 – Газета.uz“ (2021-yil 8-oktyabr). Qaraldi: 2022-yil 30-avgust.
4. „Depozit.uz va TBC Bank o‘rtasida hamkorlik o‘rnatildi!“ (2021-yil 4-mart). Qaraldi: 2022-yil 30-avgust.
5. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/uzbekistonda_raqamli_banklar_ish_boshlaydi
6. <https://depozit.uz/news/>.
7. <https://kun.uz/news/2020/07/06>
8. <https://www.xabar.uz/uz/tehnologiya/jahon-banki-ozbekistonda-raqamli-iqtisodiyotni-rivojl>
9. THE WORLD BANK. Matbuot xabari. PRESS-RELIZ №: 2024/ECA/045.